

O'ZBEKISTON ICHIDAGI "SHVEYSARIYA"

Muhiddinova Mehrangiz Mehriddin qizi

O'zMU Geografiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Xakimov Kamoliddin Abdukarimovich

O'zMU Tabiiy geografiya kafedrasida dots.v.b, G.f.f.d (PhD)

Annotasiya: Bu maqola orqali Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Shu bilan birga Zomin sanatoriyasi haqida ham qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Tog' bag'ridagi mo'jizalar-u uning go'zal tabiati va buning salomatligimizga foydalarini bilish mumkin.

Kalit so'z: Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi, Zomin sanatoriyasi, Ko'lo'oy, G'o'ralasoy, Turkiston, Boboyong'oq, Turkiston qayini, Zominsuv Sangzor, oq tirnoqli ayiq, archazorlari, Qizil otaksoy, qizil toshlar, Peshag'or g'ori.

Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi Jizzax viloyatida joylashgan. Turkiston tizma tog'larining g'arbiy qismining shimoliy yon bag'rida Ko'lo'oy va G'o'ralasoy havzalarida joylashgan. Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi 1959-yilda tashkil etilgan. Maydoni 15,6 ming gektarga teng bo'lib, shundan 11,2 ming gektariga archa o'rmonzorlari barpo etilgan.

Zomin tog'-o'rmon mintaqasida qishki sport turlari markazi, sog'lomlashtirish sport majmuasi tarzida 1976-yilda tashkil etilgan. 1978-yilda "O'zbekiston xalq bog'i" nomi berilgan. Milliy bog' tashkil etilganidan so'ng qo'riqxonasi maydoni kengaytirildi va 31500 gektarga yetkazildi.

Qo'riqxonada, asosan, Turkiston tog'i, qisman Morguzar tog'ining 1000-4030 m gacha bo'lgan balandliklarida joylashgan. Geologik tuzilishini asosan, paleozoy erasining har xil slanest, ohak, qumtosh yotqiziqlari tashkil etadi. Shu bilan birga paleogen va neogen yotqiziqlari ham keng tarqalgan. Ayniqsa, kengligi 500 m ga teng bo'lgan Cho'rtanga jarligidagi sharshara turistik jihatdan katta e'tiborga ega. Relyefining murakkabligi va turli iqlim tuproq sharoitlariga ko'ra, qo'riqxonasida 3 ta o'simlik mintaqasi mavjud. Bular:

1. Dasht
2. O'rmon
3. Subalp

Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi keskin kontinental iqlim bo'lgan zonada joylashgan. Biroq boshqa joylarga nisbatan uning hududi tog'da joylashganligi sababli biroz farq qiladi. Ammo mintaqa ham o'z ta'sirini

ko'rsatadi, albatta. Yillik o'rtacha yog'in miqdori 400 mm dan ortiq. Eng ko'p yog'in bahorda ayniqsa, yillik yog'inning deyarli 25% aprelda yog'adi. O'rtacha yillik havo harorati +4,8°C. Yanvarning o'rtacha havo harorati -5,9°C, iyulning o'rtacha havo harorati +15,9°C. Ammo yildagi eng sovuq havo harorati qishda -35-38°C, eng issiq havo harorati esa yozda +33°C ni tashkil etadi. Haroratlar yig'indisi 2260°C, ni tashkil qiladi. Sovuq bo'g'maydigan kunlar 126 kun vegetatsiya davri esa 240 kun davom etadi. Shunday bo'lsa-da tabiati hal ayniqsa, yomg'irdan so'ng archalarning ifori insonga o'gacha zavq bag'ishlaydi.



1-rasm Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi tabiati.

Qo'riqxonada hududida archazorlarning quyi qismida (1900-2100 m) Zarafshon archasi va qora archa, o'rta qismida (2100-2800 m) sovut archa, yuqori qismida (2800-3200 m) o'rik archa o'sadi. Bulardan eng ko'p tarqalgani sovur archadir. U qora archa va o'rik archa orasida ham o'saveradi. Qo'riqxonada 180, hatto 400 yoshga kirgan archalar mavjud. Archadan tashqari Tyanshan chetani, Turkiston qayini, butalardan zirk, na'matak, uchqat, irg'ay kabi o'simliklar ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar ham o'simliklar ham kiritilgan. Masalan, Turkiston silovsini, oq firnoqli ayiq, bars. Qushlardan qora laylak, burgut, hasharotlar, jumladan, noyob kapalaklar kiritilgan. Shuningdek, bir, bosiq, tulki, jayra, to'ng'iz va boshqa turli hayvonlar yashaydi. Qo'riqxonada o'simliklarning 720, turli qushlarning 130, sutemizuvchilarning 37 turi, sudralib yuruvchilardan 8, baliqning bir turi tavsiflangan.

Parrandalardan pushti shaqshaq, to'rg'ay, miqqiy, zog'cha, zag'izg'on, kaklik, bedana, boltatumshuq, govkaptar, g'urrak, Turkiston ikkisi, boshqush va boshqalar bor. Zominsuv va Sangzor irmoqlari bilan soylarda marinka va shoh baliqlar ko'p, ilonlardan sariq ilon, suv iloni, chipor ilon, qalqontumshuq ilon, Turkiston agamasi va suv baqalari uchraydi.

Qo'riqxonaga tarkibiga Zomin milliy bog'i ham kiradi. Maydoni 25 gektardan ortiq. Milliy bog'ning relyefi bitta yaqqol tog' tizmasini tashkil etadi. Eng baland tizmasi dengiz sathidan 3500 metrga yetadi. Janubda bog' hududi Turkiston tizmasining chuqur, tor darslari bilan o'ralgan. Shimolda qo'riqxonaga qoyalari archa o'rmonlari bilan qoplangan. Iqlimi qo'riqxonaga iqlimi kabi keskin kontinental bo'lib, fasllarning almashishlari yaqqol seziladi. Efir moyli meva va rezva mevali, sarishta kabi shifobaxsh xususiyatga ega dorivor o'simliklar uchraydi. Bundan tashqari na'matak, yalpiz, hashaki, no'xat, tarxun, piyoz, chinnigullar, do'lana, yorongul va boshqa ko'p o'simliklarni uchratish mumkin. Archazorlar bog' maydonining 55% tashkil qiladi. Archalar asosan, 2000-3000m balandliklarda joylashgan. Bu yerda archaning Zarafshon archa, sovur archa va Turkiston archa turlari tarqalgan.



2-rasm Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi archazorlari

Bog' mintaqalarida 400 yoshli va undan katta archalarni uchratish mumkin. Ayniqsa, bog' hududida dorivor o'simliklarning dorivor o'simliklarning 30 dan ortiq turi, lolalarning ko'pligi, mevali butalarning keng tarqalishi e'tiborga sazovor. Umumiy o'simliklar turlari soni 100 dan ortiq. Milliy bog'da daraxtlarning 8 turi, butalarning 15 va o't-o'lanlarning 220 dan ko'proq turlari uchraydi.

Boy o'simliklar olami, turli xil hayvonot dunyosini ham nazarda tutadi. Bog'da bo'ri, burgut, chittak, quyon, Turkiston agamasi, Turkiston boyo'g'lisi, qorayaloq klip qurbaqasi, toshli savsar va boshqa ko'plab hayvonlar va qushlar yashaydi.

Milliy bog'da, uning noyob tabiatidan tashqari Qizil otaksoy maydonidagi g'alati shakldagi ulkan qizil toshlar, qadimiy Boboyong'oq yong'oq daraxti, Peshag'or g'ori, "Xujay serob-ota" ziyoratgohi kabi ko'plab tabiiy va tarixiy diqqatga sazovar joylar ham mavjud. Bundan tashqari yil davomida Zominda dam olish ham mumkin. Bog'dan unchalik uzoq bo'lmagan joyda, Zomin sanatoriyasi joylashgan. Dam olish zonasida ko'p yillar davomida barcha o'zbekistonliklar uchun sevimli dam olish maskaniga aylangan ko'plab, pansinatlar, sanatoriyalar, dam olish uylari va bolalar oromgohlari mavjud.



3-rasm Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasining go'zal tabiati.

O'ta toza havo, tog' manzaralari ignabargli o'simliklar bularning barchasi kattalar va bolalarga sog'lom turmush tarzi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi. Turli xildagi hayvonot olami va o'simlik dunyosiga ega. Archalar ko'pligi sababli inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tog'dagi sayr ham jismoniy ham, ma'naviy kuchga ega. Shuning, uchun qo'riqxonada hududida ichida sanatoriya ham tashkil etilgan. Odamlar dam olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zME. Birinchi jild. Toshkent – 2000-yil
- 2.Internet sayt: www.m.wikipedia.org